

UZBEK TELEVISION DURING THE PERIOD OF INDEPENDENCE: THE INFLUENCE OF THE NEW ERA ON TELEVISION CREATIVITY

Ilmira Nazrullaevna RAKHMATULLAEVA

Candidate of Art History, Associate Professor

Doctoral student

University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

MUSTAQILLIK DAVRI O'ZBEK TELEVİDENİYESİ: YANGI DAVRNING TELEJODIYOTGA TA'SIRI

Ilmira Nazrullayevna RAHMATULLAYEVA

San'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

Doktorant

O'zbekiston jurnalistikasi va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Toshkent, O'zbekiston

УЗБЕКСКОЕ ТЕЛЕВИДЕНИЕ В ПЕРИОД НЕЗАВИСИМОСТИ: ВЛИЯНИЕ НОВОЙ ЭПОХИ НА ТЕЛЕВИЗИОННОЕ ТВОРЧЕСТВО

Ильмира Назруллаевна РАХМАТУЛЛАЕВА

Кандидат искусствоведения, доцент

Докторант

Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

**For citation (Iqtibos keltirish uchun, для
цитирования):**

Rahmatullayeva I.N. Mustaqillik davri o'zbek televideniyesi: yangi davrning telejodiyotga ta'siri // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild, № 3. — B. 145-158.

<https://doi.org/10.36078/1721202324>

Received: April 23, 2024

Accepted: June 17, 2024

Published: June 20, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. In this article, using the example of Uzbek television, the issues of the influence of the socio-political life of the country on the mass media after the declaration of independence of Uzbekistan are analyzed. Despite laws, decrees, resolutions on freedom of speech, and the democratization of society, the processes caused by increased restrictions on the press, including television, have been reflected in the media. This leads to the fact that the Uzbek press has increased its statements not of social and political problems, but of a positive assessment of the activities of the current government and praise. They also analyzed the reasons why the mass media in Uzbekistan have become not a source of news, but a means of state propaganda, as a result of which citizens of the country began to turn to foreign media for important and important information. State regulation of state-owned TV channels in Uzbekistan, which, in turn, implies an attitude towards the media as a means of propaganda and the rejection of alternative views that differ from the policy of the state, the founder of the media; Television propaganda was carried out on the basis of an anonymous and ineffective state information order, both in financing and in the development of the state television and radio company.

Keywords: independent state; freedom of speech, free opinion, democratization; Uzbek press; reforms; non-governmental structures; state television; political censorship, competitive media space.

Annotatsiya. Bu maqolada O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilingach, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy hayotning ommaviy axborot vositalariga ta'siri masalalari o'zbek televideniyesi misolida tahlil qilindi. Mamlakatda ommaviy axborot vositalarida so'z erkinligi, jamiyatni demokratlashtirish borasida qabul qilingan qonunlar, farmonlar, qarorlarga qaramay, matbuot, jumladan, televideniyeda cheklowlarning kuchayishi oqibatlarda yuzaga kelgan jarayonlar aks ettirilgan. Buning natijasida o'zbek matbuotida ijtimoiy-siyosiy muammolar aks etgan chiqishlar o'rnni biryoqlama, amaldagi hukumat faoliyatini ijobiy baholash va ularning amalga oshirgan, kezi kelganda hatto amalga oshirmagan ishlariga ham maqtovlar bildirish kuchayib ketgani haqida so'z boradi. Shuningdek, O'zbekistondagi OAV jamoatchilik fikrini ifoda etolmaydigan, balki faqatgina uning shakllanishiga xizmat qilish bilan cheklanadigan, yangiliklar manbai emas, davlat tashviqoti vositasiga aylanib qolgani, buning natijasida mamlakat fuqarolari dolzarb, ahamiyatga molik axborotlarni olish uchun xorijiy OAVga murojaat qila boshlaganlari sabablari tahlil qilinadi. O'zbekistonda davlat telekanallarining hukumat tomonidan tartibga solinishi, bu esa, o'z navbatida, ommaviy axborot vositalariga targ'ibot vositasi sifatida munosabatda bo'lish va ommaviy axborot vositalari muassisi bo'lgan davlat siyosatidan farq qiluvchi muqobil qarashlarni rad etish bilan bog'liq kechgani, televideniyeni rag'batlantirish noaniq va samarasiz davlat axborot buyurtmasi asosida sodir bo'lgani, davlat teleradiokompaniyani moliyalashtirishda ham, umuman, ularning rivojlanishida ham kuchli nomutanosiblikni keltirib chiqargani masalalari tahlilga tortildi.

Kalit so'zlar: mustaqil davlat; so'z erkinligi; erkin fikr, demokratlashtirish; o'zbek matbuoti; islohotlar; nodavlat tuzilmalar; davlat televideniyesi; siyosiy senzura; raqobatbardosh mediatusilma.

Аннотация. В статье на примере узбекского телевидения проанализированы вопросы влияния общественно-политической жизни страны на средства массовой информации после провозглашения независимости Узбекистана. Несмотря на принятые в стране законы, указы, постановления о свободе слова, демократизации общества, в средствах массовой информации отражены процессы, вызванные усилением ограничений в прессе, в том числе на телевидении. Это приводит к тому, что в узбекской прессе усилились выступления не на общественно-политические проблемы, а положительная оценка деятельности действующего правительства и похвала. Также проанализированы причины, по которым средства массовой информации в Узбекистане стали не источником новостей, а инструментом государственной пропаганды, в результате чего граждане страны для получения актуальной и важной информации стали обращаться в зарубежные средства массовой информации. Также в статье было проанализировано государственное регулирование государственных телеканалов в Узбекистане, что, в свою очередь, связано с отношением к средствам массовой информации как к средству пропаганды и неприятию альтернативных взглядов, отличающихся от государственной политики института средств массовой информации прошлого, то, что продвижение телевидения происходило на основе неясного и неэффективного государственного информационного заказа, что вызывало сильный дисбаланс в финансировании государственных телерадиокомпаний, как и в их развитии в целом,

Ключевые слова: независимое государство; свобода слова; свободное мнение; демократизация; узбекская пресса; реформы; негосударственные структуры; государственное телевидение;

политическая цензура; конкурентоспособная медиапространство.

Kirish

1991-yil 19–21-avgust davlat to‘ntarilishi oxir-oqibat markaziy ittifoq hukumatining ag‘darilishi va SSSRning qulashiga olib kelgan asosiy voqeа bo‘ldi. 1991-yilning 31-avgust kuni O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining navbatdan tashqari sessiyasida o‘z mustaqilligini e’lon qildi.

O‘zbekistonda vaziyat yana bir qator tahdidlar bilan keskinlashdi. Ular, birinchi navbatda, uning geosiyosiy joylashuvi bilan bog‘liq edi. Afg‘onistondagi beqarorlik, Tojikistondagi Markaziy hokimiyat tarafdarlari va Birlashgan muxolifat vakili bo‘lgan turli guruhlar o‘rtasida qurolli millatlararo ziddiyat, Qirg‘iziston bilan harbiy inqiroz, “Erk”, “Birlik” partiyalarining millatchilik qarama-qarshiligi, sobiq Ittifoq respublikalari bilan o‘rnatilgan aloqalarning uzilishi, ishlab chiqarish quvvatining pasayishi va aholi moliyaviy ahvolining yomonlashuvi ortidan Farg‘ona vodiysining turli shahar va tumanlarida, so‘ng Guliston, Parkent, Bo‘kada keskin va ziddiyatli o‘choqlar paydo bo‘ldi. Bular va yana ko‘p narsa O‘zbekiston fuqarolari orasida umidsizlikni kuchaytirdi, bu esa har qanday inqiroz kuchayishiga olib keladigan ommaviy noroziliklarni kelib chiqarishi mumkin edi.

Asosiy qism

O‘zbekiston mustaqilligi e’lon qilinganidan so‘ng kuchga kirgan qonunlar, farmonlar, qarorlarda matbuotning jamiat hayotidagi o‘rniga juda katta o‘rin berilganiga ko‘zimiz tushadi. Jumladan, 1992-yilning 8-dekabr kunidan kuchga kirgan eng muhim qonunimiz O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining “Ommaviy axborot vositalari” deb nomlangan XV bobining 67-moddasida “Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to‘g‘riliqi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi” deya kafolatlanishi ham so‘z va matbuot erkinligiga umid uyg‘otadi. Shuningdek, Konstitutsiyaning 29-moddasi va “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida” Qonunning 3-moddasiga binoan har bir fuqaroga so‘z erkinligi, ommaviy axborot vositalarida chiqish, o‘z fikrini va e’tiqodini ochiq bayon etish huquqi kafolatlangan va ommaviy axborot vositalari “axborotni izlash, olish va tarqatish huquqidan foydalanadilar hamda o‘zlar e’lon qilayotgan axborotning to‘g‘riliqi va haqqoniyligi uchun qonun hujjalarda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar” deya ta’kidlangan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 29-moddasiga binoan, “har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir”.

“Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra 3-moddada, “har kim ommaviy axborot vositalarida chiqish, o‘z fikri

va e'tiqodini oshkora bayon etish huquqiga ega”, 4-moddasida “senzuraga yo‘l qo‘yilmasligi” qayd etilgan, O‘zbekiston Respublikasining 24.04.1997-yildagi “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasi — “Axborot olish kafolatlari”da “Har bir fuqaroning axborot olish huquqi kafolatlanadi” deb yozib qo‘yilgan. “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi shu kuni imzolangan qonunda yana bir bor “O‘zbekistonda senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi. Jurnalistdan xabarlar va materiallarni oldindan kelishib olinishi, shuningdek, material yoxud xabarning matnini o‘zgartirishni yoxud ularni butunlay nashrdan olib qolishni (efirga bermaslikni) talab qilishga hech kimning haqqi yo‘q” deb qayd qilingani holda, “Jurnalistning kasbiga doir faoliyati kafolatlari” deb nomlangan 10-moddasida “Jurnalistning huquqlari, sha’ni va qadr-qimmati qonun bilan qo‘riqlanadi. Davlat jurnalistga axborotni erkin olishi va tarqatishini kafolatlaydi, o‘z kasbiga doir faoliyatni amalga oshirishida uning himoya qilinishini ta‘minlaydi. Jurnalistning jurnalistlik faoliyatiga aralashish, undan o‘z kasbiga doir vazifalarni bajarish chog‘ida olgan biron bir ma’lumotni talab etish ta‘qiqlanadi” deb yozib qo‘yilgan.

Lekin jamiyatda holat o‘zgarmadi. “Toshkent haqiqati” gazetasi muxbiri Y.Chernogaev yozadi: “O‘zbekistonda yarim mingga yaqin gazeta va ikki yuzga yaqin jurnal chop etiladi. Boshqaruv organlari senzura mavjudligini inkor etmasin, u hayotda yaqqol ko‘rinib turibdi. U “senzura” deb emas, “davlat matbuot komitetining gazeta bo‘limi xodimi” deb ataladi. Bu shaxsning muhrisiz bosmaxonada hech bir gazetani ishlab chiqarishga rusxat etilmaydi. Bu odam juda katta huquqlarga ega. Men “Toshkent haqiqati” gazetasida ishlayman, bizning nashrimiz qanday muammoni yoritmasin, bu masalada hukumat qanday fikrga ega bo‘lsa, 100 foiz shunday fikr bildiradi. Chunki bizning muassisimiz shahar ma’muriyatidir. Nazorat qattiq va doimiydir” (6, 65).

Sergey Yejkovning ushbu fikrlari ham o‘scha davr matbuotining qiyofasini aks ettiradi: “Mening mamlakatimda aksariyat hollarda hokimiyat hayoti, manfaatlari va niyatlarini aks ettiradigan nashrlar hukmronlik qilmoqda. Ularni davlat moliyalashtiryaptimi, yoki xususiy shaxslarmi, buning farqi yo‘q. Xususiy nashrlar ham hokimiyat bilan yaxshi munosabatda bo‘lishni xohlashadi. Va bu holat jamiyat xolis va ikki tomonlama axborotga tashna bo‘lgan sharoitda yuz berayotgani, xalq jurnalistlarga hamon umid bilan qarayotgan sharoitda yuz bermoqda. To‘g‘risini tan olish kerak, allaqachon hech kim jurnalistlarga ishonmay ham qo‘yan. Ma’lumot uchun, O‘zbekistonda bugun ko‘proq mahalliy davriy nashrlarga emas, internet materiallari ko‘proq havola qilinmoqda” (2, 139). Bunday chiqishlar vaqt-i vaqt bilan xorij ommaviy nashrlarida, ekspertlar tomonidan bildirilib turildi. Lekin bu fikrlarni aytganlar ishdan chetlatildilar, “xorijning puliga sotilgan sotqinlar”, “xalq dushmani” deb e’lon qilindilar, mamlakat ommaviy axborot vositalaridan chiqish huquqidan mosuvo qilindilar.

Haqiqatan esa O‘zbekistonda matbuot erkinligiga monelik qiluvchi senzura yo‘q edi. O‘zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasingning 67-moddasiga ko‘ra, “ommaviy axborot vositalari erkindirlar va faqat qonun asosida faoliyat yuritadilar, o‘zлари tarqatayotgan axborotning to‘g‘riliги учун belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar, senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi” deb yozilgan. Bundan tashqari, Konstitutsiyaning 29-moddasasi va “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida” Qonunning 3-moddasiga binoan har bir fuqaroga so‘z erkinligi, ommaviy axborot vositalarida chiqish o‘z fikrini va e’tiqodini ochiq bayon etish huquqi kafolatlanadi.

Ayniqsa, O‘zbekiston mustaqilligi bayramlari nishonlanadigan kunlarda matbuot va televide niye-radio ko‘rsatuvlarida mamlakatni va uning rahbarini shon-shuhratlarga ko‘mish avjiga chiga boshladi. “Dono yo‘lboshchi”, “buyuk iqtisodchi” degan tashbehlар normaga aylanib ulgurgan, hatto televide niye ko‘rsatuvlarida kichkinagina intervyu beradigan respondent ham o‘z so‘zida bugungi yaratilgan sharoitlar muhtaram yo‘lboshchi tufayli amalga oshgani, unga tashakkur aytish kerakligini qayd etish bilan davom ettirildi. “Kulfat shunda va muammo shundan iborat ediki, mening hamkasblarim hokimiyatga xizmat qilishni o‘z burchlari deb bilishardi. Hamma hukumatga qulluq qilishi shart edi. O‘zbekiston aholisining aksariyati singari ommaviy axborot vositalari ham o‘n ikki yil orasida qullarni, birinchi navbatda qullik psixologiyasini siqib chiqara olmadilar. Men aniqroq aytadigan bo‘lsam, ko‘philikka bu vaziyat yoqardi, chunki bu ko‘pincha kasbiy faoliyatda uchraydigan infarktlar, to‘qnashuvlar, mojarolar va shunga o‘xshash narsalarsiz nisbatan tinch va osuda hayotni o‘z ichiga olardi” (2, 139–140).

Mamlakat rahbari o‘zining ko‘plab chiqishlarida uzoq yillar davomida Moskva eshiklariga bosh urib borgani, biror ishni bitirish учун mablag‘ni undirish qanchalar qiyin bo‘lgани haqida so‘z yuritadi. “O‘tmishga qarab ish ko‘rish xayrli” degan matal xayrli, lekin xalqning hayoti yaxshilanish o‘rniga, kun kechirish kundankunga og‘irlashib borardi. Mustaqillik bayramlarida, parlament sessiyalarida, “jannatdan xabarlar” nomini olgan mashhur “Axborot” ko‘rsatuvlarida hayotning yaxshilanib ketgani, xalq bu kunlarga yetib kelganiga shukronalar o‘qishi kerakligi, qo‘sni respublikalar, xorijga chiqib ketayotgan fuqarolarimiz esa turgan-bitgani “dangasa” ekanliklariga urg‘ular berila boshlandi. Xalq va hukumat, millat va televide niye o‘rtasida katta jarlik paydo bo‘la boshladi. Aholining katta qismi o‘zining yangiliklarga bo‘lgan ehtiyojini yo‘ldosh, kabel televide niyelari orqali qondira boshladi. Bu ijobjiy holat emasdi, albatta.

90-yillar boshida o‘zbek televide niyesi katta ta’sir doirasiga ega bo‘lgan televide niye edi. Bu televide niyen ni nafaqat O‘zbekiston, balki O‘rta Osiyoda ham qariyb ellik millionli auditoriya tomosha qilardi. Ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy ko‘rsatuvlar, publisistik chiqishlar, videofilmlar namoyishi, sport ko‘rsatuvlari orqali u ulkan auditoriyani qamrab olgan, axborot, ma’rifat o‘chog‘iga aylangandi. Uni dunyo jurnalistikasi andozalariga javob beradigan televide niye deb aytib bo‘lmasa-da, lekin aholining katta qismi учун ham

axborot, ham rekreativ makon vazifalarini o'tovchi ommaviy axborot vositasi edi.

Bu televide niye sobiq sovetlar mamlakatida mafkura masalalariga katta e'tibor beriladigan, bu ish bilan mashg'ul xodimlar yaxshi rag'batlantiriladigan davlat korxonasi edi. 80–90-yillar sovet davrida teleko'rsatuvga yaxshi qalam haqi to'langan, teleko'rsatuv tayyorlash va uni efirga uzatish jarayonlarida faoliyat yuritadigan xodimlar maoshi ham boshqa tashkilotlarda ishlaydiganlarnikidan ko'proq edi. Shuningdek, televide niye xodimlariga ko'rsatuvlar uchun beriladigan mukofot pullari mavjud bo'lib, televide niye xodimlari o'z iqtisodiy ahvollarini yaxshilashlari uchun shart-sharoitlar mavjud bo'lgan. Har bir besh yillikda TV xodimlari uchun ko'p qavatli shinam xonardonli, markazda joylashgan uy-joylar bilan ta'minlanish imkonini mavjud edi. Yosh mutaxassislar ham bunday imkoniyatga ega edilar, shuningdek, Moskva, Leningrad, qardosh respublikalar poytaxt televide niyelarga beriladigan ish va kasbiy mahoratlarini oshirGANI tashrif buyurardilar.

1991-yil Sovet Ittifoqining parchalanib ketishi bilan SSSR Davlat Teleradio tizimi ham yo'q bo'ldi. Markaziy televide niye "Ostankino" davlat teleradiokompaniyasiga aylantirildi. "1991-yil dekabr oyidan keyin inersial mexanizmlar bir muncha vaqtgina o'nlab yillar davomida shakllangan va mavjud bo'lgan chegaralar doirasidagi yagona axborot maydonini saqlab qololdi. Dastlabki o'zgarishlar dasturlarning mazmuniga, milliy televide niye tashkilotlarining tashkiliy tuzilishiga ta'sir ko'rsatdi. Moskva Rossiya Federatsiyasining respublika markaziga aylandi, tabiiyki, Ukraina, Qozog'iston, Boltiqbo'y davlatlari, O'rta Osiyoga nisbatan — muvofiqlashtiruvchi rolini yo'qotdi. Respublika televide niye tashkilotlarining rivojlanishi har bir alohida suveren davlatning qonunchiligi va faoliyatining obyektiv shartlarini hisobga olgan holda mustaqil yo'llar bilan o'tdi", — deya ushbu murakkab jarayonlarga baho beradi V. O. Tsvik (5, 83).

Tabiiyki, televide niyening yangi moddiy-texnik uskunalarini yaratish anchayin murakkab, qimmat va katta mehnat talab qiladigan jarayondir. Mustaqil davlatlarning fuqarolari Moskva ko'rsatuvlari — yangiliklardan tortib teleserillar, sport reportajlari, teleo'yinlari, bayram tomoshalarini kuzatishda davom etdilar, bunda sobiq SSSR hududida rus tilining umummilliy muloqot vositasi bo'lGANI ham sabab bo'ldi.

Avvaldan kutilganidek, yagona telemakonning parchalanishi ham mafkuraviy, ham iqtisodiy tamoyillar tufayli yuz berishi muqarrar edi. "Moskva ko'rsatuvlaridagi joriy teledasturlari yoritishda siyosiy qarashlardan norozilik, bir tomon dan, yangi milliy-davlat siyosatini tasdiqlash imkoniyatlarini kengaytirish istagi, ikkinchi tomon dan, yaqin-yaqinlargacha qat'iy chegaralangan milliy tildan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish istaklarining kuchliligi — bularning barchasi mafkuraviy omillarga tegishli. Iqtisodiy tafovutlar milliy televide niye tashkilotlarning reklama foydasining bir qismiga da'volari bilan boshlandi, negaki sobiq

SSSR hududiga rus teledasturlarining efirga uzatilishi reklama beruvchilarni sobiq Butunittifoq telekanallariga jalb qilgandi. Keyinchalik, suveren davlatlar Moskvadan eshittirishlarni faqat Rossiya tomoniga pul o'tkazgan sharoitidagina translyatsiya qilish da'volari bilan chiqdilar" (5, 83).

Rossiyada davlat televide niyesi tuzilmalarining o'zgarishi xususiyashtirish jarayonlari bilan qadamma-qadam bordi, nodavlat telekanallarining ish boshlashi mamlakatda tele- va radioreklama tashkilotlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Muvaffaqiyatli moliyaviy siyosat va malakali ijodiy kadrlarning jalb qilinishi natijasida xususiy telekompaniyalar davlat studiyalaridan ko'ra sifatiroq mahsulotni ishlab chiqara boshladilar. Ikkinchidan, xususiy telekompaniyalarning ishlab chiqarish quvvati ularning texnik holatini yaxshilanishiga olib kela boshladi, holbuki ushbu yillar davlat televide niye texnik bazasini eng quyi darajaga tushirib qo'ygan edi.

Qisqa "o'tish davri" deb nom olgan yillarda Rossiya televide niyesi tizimi 80-yillar shakllanishning kutilmagan yo'llarini bosib o'tdi: bolshevistik doktrina changallaridan sirpalib chiqib, siyosiy senzura deb nomlangan sharmandali jarayondan voz kecha oldi, partiya-davlat monopoliyasi tarkibida bo'lishiga chek qo'ydi, mulkchilikning barcha shakllari sinab ko'rildi (davlat, aksionerlik, xususiy va boshqalar), telekompaniyalarning bo'linishi yuz berdi va natijada raqobatga qurilgan dasturlar bozori vujudga keldi. Buning natijasida tomoshabinlar qiziqishlarini qondiradigan bozor faoliyat yurita boshladi.

O'zbekistondagi tijoralashuv tabiiyki Rossiyanikidan farq qiladi. Tomoshabinlarni jalb qilish O'zbekiston televide niyesi uchun ham yangi ustuvor vazifaga aylandi: investorlar, homiylar va reklamalarni jalb qilish uchun jamiyatdagи ijtimoiy-siyosiy voqeahodisalarni keng yoritish zarur edi. 1993-yilda "Omad" tijorat kanalining tashkil bo'lishi istiqbolda bunday qadamlar samarali bo'lishini yaqqol namoyish etdi. O'z-o'zidan telekanalga iste'dodli, televide niye san'atini yaxshi biladigan ijodkorlar to'plandilar. Sun'iy yer yo'ldoshlari orqali uzatiladigan xorij telekanallari tajribalaridan o'rganish, yangi zamonaviy teletexnologiyalarni sotib olish imkoniyati va ulardan o'rinni foydalanish o'z samaralarini bera boshladi ("Daraklar", "Kimga qanaqa?", "Muhabbatga oshno qalblar", "Sharq taronalari", "Yulduz-shou", "Salom, yoshlar!", "Ko'ngil", "Ishingiz baroridan kelsin!", "Shaxs va bahs"). Aksariyatini ma'rifiy-ko'ngilochar ko'rsatuвлar tashkil etadigan bu loyihalarda mavzu tanlashda o'ziga xoslik, syujet va kompozitsiyani tuzishda odmi, odatiy, an'anaviy usullardan voz kechish, davr ruhiga xos tezkorlik, shiddatni olib kirilgani muvaffaqiyatli bo'lsa, ikkinchi tomonдан xorij mamlakatlarining tayyor dasturlari, ko'rsatuвлaridan nafaqat ko'rinishlar lavhalarni ko'chirish, balki tarjima orqali o'zlashtirish holatlari ko'paydi. Albatta, bu holatlар o'zining mustaqil qadamlarini qo'yayotgan milliy televide niyemiz uchun ijobjiy holat bo'lmasa-da, lekin uni barpo qilish yo'lidagi dastlabki izlanishlar edi. Agar Rossiyada bu jarayonlar ortga qaytmaydigan

darajada shiddat bilan rivojlangan, alal-oqibat xususiy telekanallarning paydo bo‘lishiga olib kelgan, natijada tomoshabin uchun maqbul, raqobatli jarayonda tanlash imkoniyatining kengayishiga olib kelgan bo‘lsa, O‘zbekistonda bu jarayonlar unchalik uzoq davom etmadi. Ko‘p o‘tmay, telekanal “Toshkent” studiyasiga aylantirildi.

O‘zbekiston teleradiokompaniyasi tarkibida mustaqillikning dastlabki davrida mulkchilikning turli xil ko‘rinishlaridagi telekanallar nima uchun paydo bo‘la olmadi? Holbuki televideniyeni yangi darajalarga olib chiqish davlat va hukumatning oldida turgan eng muhim vazifalardan biri edi. To‘g‘ri, barcha sohalar qatori televideniye ham isloh etila boshlangandi. 1992-yil 7-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi teleradioeshittirish davlat Komitetini O‘zbekiston Davlat teleradioeshittirish kompaniyasiga aylantirish to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Bunday o‘zgarishdan maqsad televideniyening moddiy-texnikaviy imkoniyatlarini yaxshilash, efir hajmini kengaytirish, teledasturlarning sifatini oshirish, ko‘rsatuvlarning mazmun-mundarijasini yaxshilash edi. 1994-yil 28-martda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston davlat televideniye va radioeshittirishlari hajmini ko‘paytirish, uning moddiy-texnika negizini mustahkamlash to‘g‘risida”gi Qarori e’lon qilindi. Ushbu Qarorga asosan O‘zbekiston televideniyesining 3 kanali uzlusiz ishlashi ta’minlandi. Keyingi Farmon 1996-yil 7-mayda qabul qilindi. “O‘zbekiston ijtimoiy taraqqiyotida televideniye va radioning rolini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni bilan joylarda hududiy bo‘linmalarga ega bo‘lgan O‘zbekiston teleradiokompaniyasiga aylantirildi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 29-martdagи “Ijtimoiy-ma’naviy muhitni yanada sog‘lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 130-sonli qaroriga ko‘ra “Yoshlar” telekanali tashkil etildi va u o‘z faoliyatini o‘sha yilning 1-sentyabridan boshladi. 2004-yilda Davlat teleradiokompaniyasi tarkibida “Sport” telekanali o‘z faoliyatini boshladi.

Ko‘rib turganimizdek, O‘zbekiston hukumati davlat televideniyesiga bozor sharoitida faoliyat yuritadigan va auditoriya uchun raqobatlasha oladigan, axborot sifatini yaxshilaydigan to‘laqonli sanoat, dasturlari mustaqil va davlatdan mustaqil bo‘la oladigan biznes tuzilmasi sifatida emas, balki ko‘proq iqtisodiyotning subsidiyalangan obyekti va ichki mafkuraviy ta’sir vositasiga ega mafkuraviy qurol sifatida qarashda davom etdi. Bu, o‘z navbatida, davlat axborot buyurtmasiga tayangan va tayanishda davom etayotgan ko‘plab mahalliy ommaviy axborot vositalarining tobora passivligini rivojlantirdi, faqat davlat siyosatini ommalashtirishga qaratilgan bu jarayon hech qanday tarzda raqobatbardosh media-mahsulotni rivojlantirmasdi, aksincha, televideniyening umumiyligini turg‘unligiga olib keldi.

O‘zbekistonda davlat telekanallarining bugungi reytingi pastligi negizida media bozorining haddan tashqari davlat tomonidan

tartibga solinishi, bu esa, o‘z navbatida, ommaviy axborot vositalariga targ‘ibot vositasi sifatida munosabatda bo‘lish va ommaviy axborot vositalari muassisi bo‘lgan davlat siyosatidan farq qiluvchi muqobil qarashlarni rad etish bilan bog‘liq kechdi. Ommaviy axborot vositalari, shuningdek, televideniyeni rag‘batlantirish noaniq va samarasiz davlat axborot buyurtmasi asosida sodir bo‘lgani, davlat teleradiokompaniyani moliyalashtirishda ham, umuman, ularning rivojlanishida ham kuchli nomutanosiblikni keltirib chiqardi. Shunday qilib, yuqoridagi muammolar tarixan O‘zbekiston televideniyesi rivojlanishining asosiy aksil-drayverlariga aylandi va zaif raqobatbardoshlik uchun asos bo‘lib xizmat qildi, bu esa pirovardida media industriyasidagi davlat siyosatining samarasizligiga olib keldi. Davlat hali-hanuz mamlakat televideniyesidan ichki siyosat bilan tanishtirishi zarur bo‘lgan ommaviy axborot vositasi sifatida ko‘rishdan voz kecha olmay kelmoqda va natijada uni saviyasi nihoyatda past televideniyega aylantirib qo‘ydi.

“Ko‘rsatuvlarning mundarijasi va darajasi nihoyatda past. Televideniye va radioda hukumatni har qanday tanqid qilish qat’iyan man qilingan, tahliliy ko‘rsatuvlar umuman yo‘q, fikrlar plyuralizmiga yo‘l qo‘yilmaydi, barcha mavzu va muammolar faqat davlat mulozimlari nuqtayi nazaridan turib muhokama qilinadi”, deb yozadi S. Ejkov (2, 139). Bunday fikrlar nafaqat rasman mutaxassislar tomonidan bildirilar, deyarli aholining hamma qatlamlari ongida ham mavjud edi.

Albatta, vaqt-i vaqt bilan mahalliy televideniyeda ma’naviyat va ma’rifat, milliy istiqlol mafkurasi targ‘ibotiga oid materiallar paydo bo‘lar, ammo keng ko‘lamli islohotlarning borishi va amalga oshirilishiga oid tanqidiy qarashlar o‘z qamrovini topmasdi. Ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotga bag‘ishlangan chuqur tahliliy dasturlar uchun efirda joy va vaqt yo‘q edi. Natijada aholining katta qismi asosan Rossiya televideniyesini tomosha qilishni afzal ko‘rishdi. ORT, NTV, RTR, Rossiya 1, Rossiya 24, Kul’tura, Zvezda, Mir, Mir 24 telekanallari O‘zbekiston bozorida efirga uzatildi. Ular orasida nafaqat o‘quv va ko‘ngilochar shouular, balki Rossiya Federatsiyasi va dunyoda sodir bo‘layotgan voqealar tahlilini o‘z ichiga olgan siyosiy va iqtisodiy dasturlar ham mahalliy tomoshabinlar orasida ayniqsa mashhur edi.

Gap shundaki, o‘rganilayotgan davrda mahalliy televideniyedagi ijtimoiy-siyosiy eshittirishlar I. A. Karimovning xorijiy mamlakatlarga tashriflari yoki xorijiy davlatlarning O‘zbekistonga delegatsiyalari haqidagi rasmiy xabarlardan iborat edi. Bu, ehtimol, jamoatchilikka ozgina ma’lumot bergen protokol ma’lumotlari edi. Biroq so‘nggi yillarda tomoshabinlar dunyo voqealaridan xabardor bo‘lish uchun ko‘pincha Yevronyus kanali va Butunjahon internet tarmog‘iga murojaat qilishdi.

O‘sha yillar nafaqat jamiyat, jurnalistlar, balki turli darajadagi mansabdor shaxslar ham qat’iy cheklovlar sharoitida edilar. Mansabdor shaxslar ham televideniyega intervyu berishdan hadiksirashar, teleekranda ko‘rinishni istashmasdi, chunki bu

mamlakat rahbariga unchalik ham xush kelmasdi. Axborotning cheklanganligi tufayli, fuqarolar mamlakatda faoliyat yuritadigan vazirlar, hokimlarni tanishmasdi, aksincha, Rossiya Federatsiyasi partiyalarining yetakchilari, hatto AQSh, Italiya, Fransiya, Germaniya hukumatlari davlat va siyosat arboblari faoliyatlarini muhokama qilishardi.

Televideniye ko'rsatuvarlarda O'zbekistonning "yorqin kelajak sari" o'ziga xos yo'li haqidagi ma'lumotlarni takrorlashdan ko'ra, mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvining afzalliklari, islohotlar bosqichida turgan iqtisodiyoti, uning erkin bozor qonunlari asosida rivojlanishi kerakligi haqida gapirish muhimroq edi.

OAV xodimlari, jumladan, telejurnalistlarning ahvoliga kelsak, shuni ta'kidlaymizki, mamlakatimizda qabul qilingan qonunlar ishlamasligi tufayli ular qiyin sharoitda faoliyat yuritdilar. Qonunlar ishlaganidagina u mazmun, mohiyat kasb etishi ayon haqiqat. Televideniye hayot qanday bo'lsa, uni boricha, bo'yamay, bejamay ko'rsatsagina, uni tomosha qilishlari mumkin edi. Aks holda, tomoshabin Rossiya va boshqa xorijiy telekanallarni sun'iy yo'ldosh antennalari yoki kabel televideniyesi orqali, keyinchalik esa internet orqali tomosha qilishga o'tib ketishlari mumkin edi va hayot haqiqati shuni ko'rsatdiki, shunday bo'ldi ham.

1993-yilning yanvarida O'zbekiston televideniyesi axborot-tahliliy ko'rsatuvlari rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan yana bir muhim voqeа sodir bo'ldi. "Axborot" ko'rsatuvi birinchi marta qaytadan tashkil etildi va unning faoliyatiga bir qator o'zgarishlar kiritildi.

Biroq O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin ham "Axborot" ko'rsatuvi axborot-tahliliy janrdagi yagona teleko'rsatuvo'lib qolgani holda, hukumat nuqtayi nazariga to'g'ri kelmaydigan fikrlarni aytishdan, hokimiyatni tanqid qilishdan saqlandi. Vaqt o'tishi bilan dasturda raqobatchilar paydo bo'ldi — yangi tahliliy dasturlar o'z ko'rsatuvarlarda muqobil fikrlarni ifodalash tufayli ko'proq ko'rinishga ega boshladi. Biz ana shunday ko'rsatuv sifatida "Omad" telekanalining "Daraklar" informatsion dasturini aytay olamiz. Nevezorov (Leningrad studiyasi)ning "600 sekund" ko'rsatuvi singari 10 daqiqa mobaynida jurnalistlar poytaxtning ijtimoiy-siyosiy hayotga doir muammolarni aytishardi (Furqat Zokirov, Said Hidoyatov va b.) 1998-yil oktyabr oyida "Toshkent" (4) telekanali negizida yangi haftalik "Poytaxt" tahliliy dasturi yaratildi. "Poytaxt" dasturi O'zbekistonda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy voqealarning haftalik sharhi sifatida o'rinn oldi. Loyihani jurnalist va siyosiy sharhlovchi Pavel Yes'kov olib bordi, u yangiliklar voqealarini nafaqat kelajakdagи siyosiy va iqtisodiy samaralari nuqtayi nazaridan, balki madaniy nuqtayi nazardan ham tahlil qildi. Yes'kov o'z dasturini tomoshabinlar bilan muloqot konsepsiyasiga asosladi. "Poytaxt" dasturi ham axborot-tahliliy emas, balki axborot-publisistik janrga yaqinligi bilan ajralib turardi. Boshlovchi chiqishlari va syujetlarida mafkura va ma'naviyat

mavzuidagi muhokamalarning yo‘qligi “Poytaxt” teleko‘rsatuvining katta auditoriyaga ega bo‘lishini ta’minladi.

Shu o‘rinda “Yoshlar” telekanali “Davr” informatsion dasturining “Davr” hafta ichida” haftalik ko‘rsatuvini ham aytib o‘tishimiz joiz. Uni yosh boshlovchi, iqtidorli jurnalist Xayrulla Nuriddinov olib borgan. O‘ziga xos fikrlash, keng mushohada egasi sifatida o‘zining dastlabki chiqishlari bilan xalqning ijtimoiy-siyosiy muammolarini ko‘targan, auditoriya muhabbatini qozonganiga qaramay, ko‘p o‘tmay uni ham “Axborot” informatsion dasturi jurnalistlari singari hukumat nuqtayi nazariga to‘g‘ri kelmaydigan fikrlarni aytishdan, hokimiyatni tanqid qilishdan saqlanadigan ijodkorlar saflariga tushib qoldi. Buni O‘zbekiston uchun odatiy hol deb baholasa bo‘ladi.

O‘zbekiston televide niyesining axborot-tahliliy ko‘rsatuvlari o‘z oldiga qo‘yan vazifalarni bajara olmaydigan darajaga tushib qoldi. Mamlakat rahbariyati telejurnalistlar faoliyatiga aralashib, o‘z faoliyatlarida jamoatchilikni o‘ylantirayotgan masalalarni muhokamaga olib chiqishni ta‘qiqlab qo‘ydi. Hokimiyatning televide niye xodimlariga yordami texnik va texnologik modernizatsiya uchun mablag‘ ajratish bilan cheklandi. Ushbu jarayonlar yurist va jurnalist K. Bahriev tomonidan quyidagicha baholangan: “Jurnalistlar mehnatiga to‘lanadigan haq korrupsiyani istisno etadigan darajada yetarli emas. Maosh kamligi tufayli jurnalist xodimlar boshqa faoliyat sohalariga ketib qolayotgan holatlar kuzatilmoqda. Matbuot xodimlari va televide niye xodimlari maoshi o‘rtasida sezilarli tafovut mavjud. Jurnalistlar o‘z materillari bilan boyvuchchalar va arboblarga xizmat qilayotgan holatlar mavjuddir” (1, 180).

Televizion muhitdagi o‘zgarishlarni tahlil qilganimizda, haqiqatan ham tushunarlik, yangi va g‘ayrioddiy hamma narsa dastlab qiziqish uyg‘otadi, shuning uchun jamiyat birinchi navbatda televide niyenfaol tomosha qila boshladi. Tomoshabinlar uchun tabu va tanqidiy mavzular efirda qanday muhokama qilingani, dasturlarni taqdim etishning yangi uslubi, yangi boshlovchilar paydo bo‘lganligi, audiovizual effektlar o‘zgarganini ko‘rish qiziq. O‘z fikrlarini ifoda etishdan qochgan diktordardan farqli o‘laroq, bu boshlovchilar “tirik va o‘ylayotgan” ko‘rinadilar.

Axborot va axborot-tahliliy teleko‘rsatuvlar formatini o‘zgartirishga birinchi urinishlar 1980-yillarning o‘rtalarida — 1990-yillarning boshlarida amalga oshirildi. Keyin diktorning qiyofasini o‘zgartirish boshlandi — birinchi marta yangiliklar boshlovchisi shunchaki matnni suflyordan o‘qibgina qolmay, balki ma’lumotlarga izoh bera boshladi.

90-yilga kelib, yangi janr — yakshanba tahliliy ko‘rsatuvi — “Yakunlar” (“Itogi”) dunyoga keldi. Ushbu janr nafaqat o‘zining yangiligi, balki boshlovchining kun tartibidagi o‘z fikrini ifodalash va himoya qilish uslubi bilan ham e’tiborni tortdi. O‘zbekistonda ham haftalik “Tahliloma” ko‘rsatuvi aynan shu jarayonlarning ne’mati sifatida maydonga chiqdi. Lekin har kunlik axborotlar

majmuasidan yig‘ilgan ushbu haftalik ko‘rsatuv ham axborot maydoniga yangilik kirlita olmadi.

Siyosiy sharh deb atalgan, sovet televideniyesida ancha katta e’tiborga ega bo‘lgan janr televideniye jurnalistlari nuqtayi nazaridan ham dasturlardan ham tushib qola boshladi. Xorijiy mamlakatlarning yangiliklari uzatilgan hollarda, ular odatda tabiiy va texnogen ofatlar, turli xil kelib chiqadigan baxtsiz hodisalar aks etadigan videolarga o‘rin berilardi. Bu o‘z o‘rnida faqat yutuqlargina namoyish etiladigan televideniye bilan cheklanayotgan mamlakat aholisini diqqat-nigohida butun dunyo haqida negativ fikrlarning shakllanishiga olib kela boshladi. Ahvol shu darajaga yetdiki, tomoshabinlar xorij va rus sharhlovchilari nomlarinigina qayd etishardi, Mamlakatda siyosiy sharhlovchilar gildiyasi chetga surib chiqarildi.

Sovet turmush tarzini namoyish etadigan filmlar efirdan olib tashlandi. Ikkinci jahon urushi haqida gapirish, qatnashchilarning orden va medallarini taqib chiqishlari qat’yan man etildi.

1996-yilning 20-dekabr kuni Prezident O‘zbekiston ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash milliy assotsiatsiyasining bir qator rahbarlari, mamlakat milliy mafkurasi yetakchilarini to‘plagan holda, mamlakatda “Hurriyat” nomli yangi gazetaga asos solinganini e’lon qiladi (3).

“Hurriyat” — istiqlolimiz mevasi. Bu gazetani nashr etish to‘g‘risidagi hukumat qarorida uni muntazam chiqarish, keyinchalik rus va ingliz tillarida ham chop etish, mamlakatimizda kechayotgan demokratik jarayonlarning xolis ko‘zgusiga aylantirish ko‘zda tutilgan edi. Yangi nashrning nishona soniga katta umid bilan imzo chekkan muharrir sifatida bugungi holatdan boshqalarga nisbatan ko‘proq tashvishga tushayotganimning sababi shunda”, — deydi keyinchalik O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Ahmadjon Meliboev. Katta shov-shuvlarga sabab bo‘lgan, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayoti, uning muammolari o‘z aksini topgan gazeta obunasiz 10 000 tirajga chiqdi. 5 sonidan so‘ng gazeta bosh muharririga hukumat mulozimlari jiddiy tahdidlar qila boshladilar. “Hurriyat” gazetasi atrofida yuz bergen, butun dunyo hamjamiyatini to‘lqinlashtirgan voqealarni mamlakatda so‘z erkinligi masalasida bundan buyog‘iga ahvol yomonlashishi, so‘z erkinligiga qarshi vaziyat mavjudligini ko‘rsatardi.

Xulosalar

Ayonki, bu voqealar mamlakat matbuotiga, xususan, televideniyega ham jiddiy ta’sir ko‘rsatmasligi mumkin emasdi. Shu voqealar rivojida O‘zbekiston televideniyesining “TV-1” kanalida efirga chiqqan “Minbar”, “Futbol sharhi” ko‘rsatuvlari ham yopildi. “Minbar” ko‘rsatuvining qahramonlari — oddiy xalq bo‘lib, ular o‘zlarini qiyayotgan muammolar haqida so‘zlash imkoniga ega edilar. Har bir ko‘rsatuvda (muharrir — F. Zokirov) to‘rt – besh fuqaro o‘zi duch kelayotgan ijtimoiy-siyosiy hayotda uchraydigan masalalar xususida so‘zlardi. “Futbol sharhi” ko‘rsatuvi muallifi —

A.Imomxo'jaev esa o'zbek futbolida yuzaga kelgan muammolar haqida o'z qarashlarini bayon qilgandi. Ayonki, bu ko'rsatuvlar davlat va hukumat yuqori kursilarida o'tirgan mulozimlarga manzur tushmadi.

Mamlakatda sukut yuzaga kela boshladi. Bizning o'ylashimizcha, aynan shu tarzda xalqning qayta qurish yillarida shakllangan siyosiy ongiga katta zarba berildi. Holbuki, ommaviy axborot vositasi sifatida televideniye millatning asosiy minbarlaridan biri edi va muhim ijtimoiy-sotsial muammolarni yoritishi, turli siyosiy kuchlar, partiyalar, guruhlarga minbar ajratishi, fuqarolarni siyosiy jarayonlarda faol bo'lishlari uchun sharoit yaratib berishi kerak edi. Insonga shaxs, fuqaro sifatida qarash o'rniga, "hammasini o'zimiz bajaramiz, o'zimiz hal qilamiz" qabilidagi "yopiq" siyosat natijasida xalq va davlat, fuqarolar va hukumat o'rtasida katta jarlik paydo bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Баҳриев К.Ҳ. Сўз эркинлиги ҳақида сўз. — Тошкент: Oltin meros press, 2023. — 180 б.
2. Ежков С. Роль журналистики в современном обществе. Пятая центрально-азиатская конференция СМИ // Центральная Азия — в защиту будущего. Средства массовой информации в многокультурных и многоязычных обществах. Пятая центральноазиатская конференция СМИ, Бишкек, 17–18 сентября 2003 г. — Вена, 2003. — С.139–143.
3. Мелибоев А. “Хуррият” муҳлислари, қаердасиз? — URL: <https://gujum.uz/mutolaa/hurriyat-muxlislari-qayerdasiz/>
4. «Пойтахт» — главная редакция информационных программ телерадиоканала «Тошкент»: оперативность, актуальность, професионализм. — URL: <http://infocom.uz/2007/05/02/poyahtglavnaya-redaktsiya-informatsionnyih-programm-teleradiokanalata-toshkentoperativnost-aktualnost-professionalizm/>
5. Цвик А.Л. Телевизионная журналистика. История. Теория. Практика. — Москва: АСПЕКТ ПРЕСС, 2004. — 382 с.
6. Черногаев Ю. СМИ Узбекистана: горячая осень и горячая зима 2001 года // Свобода средств массовой информации в период борьбы с терроризмом. Третья центральноазиатская конференция по вопросам СМИ. — Алматы, 10-11 декабря 2001 г. — Вена. — С.61–67.

References

1. Bakhriev K.Kh. *Suz erkinligi khakida suz* (A word about freedom of speech), Tashkent: Oltin meros press, 2023, 180 p.
2. Ezhkov S. *Tsentral'naya Aziya — v zashchitu budushchego* (Central Asia — in defense of the future), Fifth Central Asian Media

Conference, Bishkek, September 17–18, 2003, Vein, 2003, pp.139-143.

3. Meliboev A. “*Khurriyat*” mukhlislari, kaerdasiz? (Hurriyat fans, Where are you?), available at: <https://gujum.uz/mutolaa/hurriyat-muxlislari-qayerdasiz/>

4. «*Poitakht*» — glavnaya redaktsiya informatsionnykh programm teleradiokanala «*Toshkent*»: ‘operativnost’, ‘aktual’nost’, ‘professionalizm’ (Poytakht is the main editorial office of the information programs of the Toshkent TV and radio channel: efficiency, relevance, professionalism), available at: <http://infocom.uz/2007/05/02/poyahtglavnaya-redaktsiya-informatsionnyih-programm-teleradiokanala-toshkentoperativnost-aktualnost-professionalizm/>

5. Tsvik A.L. *Televizionnaya zhurnalistika. Istorya. Teoriya. Praktika* (Television journalism. History. Theory. Practice), Moscow: ASPEKT PRESS, 2004, 382 p.

6. Chernogaev Yu. *Tret’ya tsentral’no-aziatskaya konferentsiya po voprosam SMI* (The Third Central Asian Conference on Media Issues), Almaty, 10-11 December, 2001, Vein, pp. 61-67.